



HALOL RIZQ TOPISH

*Xabibullayev Asilbekning O'rinxoy o'g'li
 Qo'qon davlat pedagogika instituti
 tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat
 asoslari huquq ta'lif yo'naliishi 202- guruh
 talabasi*

ANNOTATSIYA

Annotatsiya: Ushbu maqolamda halollik, halol rizq topish, halol kasbining obod va farovon turmushga erishishdagi tutgan o'mni va ahamiyati, halollikning shaxs va jamiyat hayotiga bo'lgan ijobiy ta'siri, rizqimiz halol bo'lishi uchun, jamiyatimiz a'zolari orasida ahillik va inoqlik mavjud bo'lishi uchun kasb hunarimizga e'tibor qaratish va rioya rioya qilish lozim bo'lgan o'ziga hos axloqiy odoblar to'g'risida ham so'z boradi

ABSTRACT: In this article, I will talk about honesty, earning an honest livelihood, the role and importance of an honest profession in achieving a prosperous and prosperous life, the positive impact of honesty on the life of an individual and society, for our livelihood to be honest, harmony and integrity among the members of our society. It also talks about the specific morals that must be observed and observed in our profession in order to exist.

Kalit so'zlar : halollik, halol va harom, rizq

Keywords: honesty, halal and haram, sustenance

Harbir inson hayotga kelibdiki oilasi tinch turmushi esa go'zal farzandlari esa komil xulqli bo'lishini istaydi. Buning uchun esa avvalo halol rizq bilan jismini rizqlantirishga e'tibor berishi lozim. Halollikning halol rizqning siz-u biz uchun naqadar zarur ekanligi va uning ahamiyati haqida ushbu maqolamda imkon qadar batafsilroq yoritib berishga harakat qilaman.

Muborak Dinimizda ruxsat etilgan amallar halol deyiladi. 2004-yilda nashr etilgan,, **Islom ensiklopediyasi**" da,, **halol**" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi:(arabcha-,, erkin", „bog'lanmagan ", „tugunni yechish" ma'nolarini anglatadi.

Boshqa bir oyati karimada esa: "**Ey insonlar! Yerdagi halol- pok narsalardan rizqlaninglar!**" (**Baqara, 68**), deyilar ekan, rizqni halol kasb orqali qo'liga kiritish amr etiladi. O'z navbatida, Payg'ambarimiz ham o'zlarining ko'plab



muborak hadislarida halollikka, halol kasb bilan turmush kechirishga undaganlar. Zero, halol kasb obod turmush garovidir.

Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda ham,, "Halollik" e'tibordan chetta qolmagan bo'lib u haqida Payg'ambarimiz ham hadislarida ushbu Fazilatni ulug'laganlar. Halollik va halol luqma inson xulq atvoriga naqadar katta hissa qo'shishi, uning buguni va kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmasligini tarix ko'p bora isbotlagan

Hasan Basriy aytadi: "Taqvodor kishilarda taqvo shu darajaga borib yetadiki, ular haromdan qo'rqqanlari bois ko'pgina halol narsalardan ham tiyilib turadilar". Taniqli sharq olimi fiqx ilmi bilimdoni Hasan Basriy hazratlari ushbu jumlalar orqali taqvodor inson misolida jamiyatimizdagi harbir shaxs halollikni naqadar sevishi, haromdan naqadar hazar qilmog'i lozim ekanligini hammamizga o'rgatmoqda. Hozirgi kunda,, Korrupsiya"kabi illatning jamiyatimizda ildiz otib ketayotgani uni batamom yo'q qilish qiyin bo'lib qolganining asosiy omillaridan biri ham aksariyat insonlardagi haromdan hazar qilish hissining inson qalbida yetishmayotgani hisoblanadi

Oilada farzandlarning tarbiyasi ularning iste'mol qiladigan taomiga ham bog'liqligi va har qanday miqdordagi harom luqma inson shaxsiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki harbir davlatning kelajagi yoshlar qo'lida ekanligini hisobga oladigan bo'lsak oila esa jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanini chuqur anglamoq ertangi kunimizni o'ylab ish ko'rishimiz halol rizq halol turmush haqida qayg'urishimiz kerak bo'lgan va bu masala kunning eng muhim talabi bo'lgan zamonamiz. Ishonamanki harbir shaxs halollikni qadrlasa va sevsu o'z kasbida bu Fazilatni bosh shioriga aylantirsa jamiyatimizdagi ko'plab muammolar o'z o'zidan hal bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatulloh Sayfuddinov. Halol kasb farovonlik omili asari. Toshkent 2013-yil
2. Qur'oni karim.
3. Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". — T. "Islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi", 2009 y.